

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ALISHER IBODINOV NASRIY ASARLARIDA MILLIY OZODLIK KURASHCHILARI OBRAZINING BADIY TALQINI

Xoliqulova Iroda
Akramov Sherzod

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, dotsent.

e-mail: alisherergashev144@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-9838-4515>

e-mail: akramovsherzod05@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-7483-4800>

Annotatsiya.

Ushbu tadqiqot ishida milliy ozodlik kurashchilari obrazining badiiy xususiyatlari yozuvchi Alisher Ibodinovning nasriy asarlari asosida tahlilga tortildi. Tadqiqotda milliy ozodlik kurashchilari obrazining individual xususiyatlari, xarakter qirralari hamda badiiy-estetik jihatlari ochib berildi.

Kalit so'zlar: tarixiy asar, tarixiy obraz, portret, hujjatli qissa, "bosmachi", milliy ozodlik kurashchilari, xalq og'zaki ijodi, vatanparvarlik, ziyoli.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗОВ БОРЦОВ ЗА НАЦИОНАЛЬНОЕ ОСВОБОЖДЕНИЕ В ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА ИБОДИНОВА

Холиқулова Ирода
Акрамов Шерзод

Шахрисабзский государственный педагогический институт, базовый докторант.

Шахрисабзский государственный педагогический институт, доцент.

Аннотация.

В данном исследовании на материале прозаических произведений писателя Алишера Ибодинова анализируются художественные особенности образов борцов за национальное освобождение. В ходе исследования раскрываются индивидуальные особенности этих образов, черты их характера, а также их художественно-эстетические аспекты.

Ключевые слова: историческое произведение, исторический образ, портрет, документальная повесть, «басмач», борцы за национальное освобождение, устное народное творчество, патриотизм, интеллигент.

LITERARY INTERPRETATION OF THE IMAGES OF NATIONAL LIBERATION FIGHTERS IN ALISHER IBODINOV'S PROSE WORKS

Xoliqulova Iroda
Akramov Sherzod

Shahrisabz State Pedagogical Institute, PhD Student.

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Associate Professor.

Abstract.

This study analyzes the literary features of the images of national liberation fighters based on the prose works of Alisher Ibodinov. The research examines the individual characteristics of these figures, their distinctive character traits, as well as their literary and aesthetic features.

Keywords: historical work, historical image, portrait, documentary novella, "Basmachi," national liberation fighters, oral folklore, patriotism, intellectual.

Kirish. Vatanimiz bo'lmish Turkiston uzoq tarixiy davrlar davomida turli bosqinlar, istilolar va siyosiy kurashlarga guvoh bo'lib kelgan. Yurtimiz hududiga bostirib kirgan dushman kuchlariga qarshi kechgan shiddatli jang-u jadallarda xalqimizning mard o'g'il-qizlari ona zamin ozodligi, el-yurt tinchligi va milliy qadriyatlarni himoya qilish yo'lida jonini fido qilganlar. Ularning jasorati, matonati va vatanparvarligi xalq tarixida o'chmas iz qoldirgan. To'maris, Shiroq, Mahmud Tarobiy, Jaloliddin Xorazmshoh, Temur Malik, Amir Temur, Madaminbek, Shermuhammadbek kabi yurtimiz qahramonlarining nomlari xalq xotirasiga bir umr muhrlangan bo'lib, ularning hayoti va kurash yo'li bugungi avlod uchun ham mardlik va fidoyilik timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy shaxslarning jasorati va Vatan ozodligi yo'lidagi kurashlarini xalq xotirasida abadiylashtirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Zero, badiiy asar tarixiy voqea va shaxslarni oddiy bayon qilish bilangina cheklanmay, ularning ichki dunyosi, maqsad-intilishlari, ruhiy kechinmalari hamda davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitini obrazlar vositasida yoritib beradi. Shu jihatdan badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri ana shunday yurt qahramonlari obrazini yaratish, ularning ma'naviy qiyofasini yosh avlodga yetkazish va bu orqali o'quvchi ongiga mardlik, vatanparvarlik, fidoyilik, milliy g'urur hamda qahramonlik kabi boqiy qadriyatlarni singdirishdan iboratdir. Tarixiy qahramon obrazining badiiy talqini o'quvchiga o'tmishni anglash bilangina emas, balki bugungi tinch va osoyishta hayotning qadriga yetish, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini his etish imkonini ham beradi.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti vakillaridan biri Alisher Ibodinov ijodida ham tarixiy xotirani tiklash, xalq ozodligi uchun kurashgan shaxslarning badiiy qiyofasini yaratish alohida o'rin egallaydi. Yozuvchi ana shunday murakkab va mas'uliyatli ijodiy vazifani muvaffaqiyatli amalga oshira olgan adiblardan biridir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nafaqat adabiy, balki tarixiy bilimlarni ham puxta egallagan noshir, muharrir, tarjimon va yozuvchi Alisher Ibodinov tarixiy mavzuda yaratilgan "Quyosh ham olov" hikoyasi orqali adabiy muhitga dadil kirib keldi va adabiyotshunoslar hamda kitobxonlar e'tiborini qozondi. Uning tarixiy mavzudagi asarlarida voqealarni shunchaki qayta hikoya qilishdan ko'ra, tarixiy shaxslarning insoniy fazilatlarini, Vatan va millat oldidagi mas'uliyati, ozodlik uchun kurashga undagan ruhiy-ma'naviy omillarni ochib berishga intilish yaqqol seziladi.

Xususan, VII asrda yashab, ona yurtining ozodligi va xalqining erkini himoya qilish yo'lida jonini fido qilgan Alp Tegin obrazi yozuvchi talqinida mardlik, jasorat va vatanparvarlikning badiiy timsoliga aylanadi. Shuningdek, uzoq yillar davomida "bosmachil" tamg'asi ostida biryozlama baholanib, nomi qoralangan istiqlol kurashchisi Muhammad Aminbek – Madaminbek obraziga murojaat qilinishi ham adib ijodiy konsepsiyasining muhim jihatlardan biridir. Yozuvchi bu obrazlar orqali tarixning murakkab va ziddiyatli sahifalariga yangicha nigoh bilan qarashga, xalq ozodligi va Vatan mustaqilligi uchun kurashgan shaxslarning tarixiy xizmatlarini badiiy vositalar yordamida qayta anglashga intiladi. Alp Tegin va Muhammad Aminbek kabi tarixiy obrazlarga yozuvchining Vatan, ozodlik, milliy g'urur, tarixiy xotira va qahramonlik haqidagi g'oyaviy-estetik qarashlari singdirilgan bo'lib, ular Alisher Ibodinov ijodining yetakchi konseptual yo'nalishlarini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Milliy ozodlik kurashchilari obrazi mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashgan, Vatan ozodligi va xalq erkinligini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ygan fidoyi shaxslar qiyofasini aks ettiradi. Turkiy xalqlar qadimdan ozodlikka intilishi, qaramlikka ko'nmasligi kabi xususiyatlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Dushman bosqinchilariga qarshi kurashgan ilk tarixiy qahramonlar To'nyuquq, Bilga xoqon, Kultegin kabi obrazlardir. "Bu qahramonlar madh etilgan asarlarda bosh maqsad xalqni o'z yurtini sevishtirishga, o'z hukmdorlarini qadrlashga undash bo'lgani bois bunday asarlarda undov, chaqiriq ohanglari yetakchilik qiladi. Vatan eng ulug' tushuncha ekanligi, uni asrash muqaddas burch ekanligi badiiy aks ettiriladi" [1.8.2024]. To'nyuquq dushmanning yurtiga bostirib kelishini eshitgach, bezovtalana boshlaydi. Bu holat quyidagicha tasvirlangan: "O'l sabig' eshidip tun udisiqim kelmadi, kunduz o'lursuqum kelmadi (O'sha xabarni eshitib tunlari uyqum kelmadi, kunduzlari o'tirgim kelmadi)" [2.9.2021].

Milliy ozodlik kurashchilari obrazi mustaqillik davrigacha bir tomonlama baholanib kelindi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, "bosmachilar" nomi ostida qoralanib kelingan milliy ozodlik qahramonlari xususida ko'plab haqiqatlar ochiqlandi. "Bosmachilik" uchun emas, balki Vatan ozodligi uchun kurash olib borgan fidoyilarning asosini dehqonlar tashkil etar edi. Bu insonlar "qizillar" tomonidan qonga botirilgan vodiy ahlini himoya qilish uchun maydonga chiqib, qariyb 16 yildan ortiq davom etgan milliy ozodlik harakatini boshlab berdilar.

Mana shunday qo'lga qurol olib, yovga qarshi mardlarcha kurashgan va shahid ketgan insonlardan biri Muhammad Amin Ahmadbek o'g'li — Madaminbekdir. Madaminbek uzoq yillar davomida "bosmachilar"ning rahnamosi sifatida targ'ib qilindi. Bu inson xususidagi arxiv materiallari maxsus fondlarda saqlanar, bu fondlarga esa har kim ham kiritilavermas edi. Madaminbek obrazi xususida juda kam asarlar yaratilgan. Yaratilgan asarlarning ayrimlarida noto'g'ri ma'lumotlar ham keltirilgan. Qirg'iz adibi To'legen Qosimbekovning "Bulutlar ortida tog' bor" nomli romanida Madaminbek obrazi haqidagi ayrim ma'lumotlarga sovet tarixshunosligi nuqtayi nazaridan yondashilganligi sababli haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlardan foydalanilgan. "Bu ulug' insonni sovet tuzumi maddohlari qanchalik qoralamasinlar, xalq uning nomini yuragida asrab yashadi. Uzoq yillik yolg'on ta'sirida qolgan paytimizda ham millat xotirasini saqlovchilar bo'lmish oqil insonlar Madaminbek kabi millat farzandlari shaxsiyati va faoliyati qoralangan kitoblarning satrlari orasidan haqiqatni topib o'qish san'atini egalladilar. Bu san'at kitoblarda bitilgan "xoin"ni "fidoyi", "qaroqchi"ni "yurt himoyachisi", "aksilinqilobchi"ni "millatparvar" deb o'qishdangina iborat emas edi, albatta" [3.240.2024].

Madaminbek obrazi tarix va adabiyot uyg'unligida yaratilib kelindi. Nafaqat adabiyotchilar, balki tarixchi olimlar ham Madaminbek shaxsiyatini atroflicha tahlil qilib, kitobxonlar e'tiboriga havola etdilar. Jumladan, tarixchi Qahramon Rajabov Madaminbekka xos sarkardalik va davlat boshqaruvi bilan bog'liq xususiyatlarni alohida ta'kidlab o'tgan. U "Madaminbek" nomli tarixiy asarida Madaminbekning Farg'ona vodiysidagi istiqlol kurashchilarining haqiqiy ma'nodagi yo'lboshchisi ekanligini qayd etgan.

Natija va muhokama. Tarixiy obraz — real tarixiy shaxs, tarixiy voqea yoki muayyan davr bilan bog'liq holda yaratilgan badiiy obrazdir. Har bir yozuvchi tarixiy obraz yaratish jarayonida tarixiy shaxs haqidagi mavjud ma'lumotlarni badiiy qayta ishlab, uning xarakteri, ruhiyati, dunyoqarashi va davr bilan munosabatini obrazli tarzda ifodalaydi. Farg'ona xalqining milliy ozodlik kurashchilari yo'lboshchisi Madaminbek obrazining shakllanishi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Xalq orasida Madaminbek obrazining mashhur bo'lishida xalq og'zaki ijodida tarqalgan "Farg'onajon" nomli qo'shiq muhim vosita vazifasini bajargan:

*Farg'onajon, Farg'onajon –
Botirlar tuqqan onajon,
Madaminbekning diyorida
Yuragi yongan zotlar qani?*

Shu kabi misralardan so'ng Madaminbek obrazi yozuvchilar tomonidan badiiy adabiyotimizdagi yetakchi obrazlardan biriga aylantirildi. Tarixiy asar va tarixiy obraz yaratish murakkab jarayondir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tarixiy obraz portretini mohirona yaratish har qanday yozuvchining ham qo'lidan keladigan ish emas, albatta. Alisher Ibodinov tarixiy asarlarini yaratish jarayonida ilmiy bilimlarga tayanib, tarixiy ma'lumot va faktlarni sinchiklab

o'rganib, so'ngra asar yozishga qo'l urgan. Shuningdek, Madaminbekning turmush o'rtog'i Saodatxon aya, maktabdoshi va yaqin do'sti Hojixon Maxsum, Shokir hojining o'g'illari bilan bo'lgan suhbatlar ham Madaminbek portretini chizish, uning xarakterini yaratish uchun asos vazifasini o'tagan. Farg'ona viloyati arxivi fondidagi tarixiy hujjatlar, Farg'ona o'lkashunoslik muzeyi fondidagi materiallar ham yozuvchi uchun muhim manba vazifasini bajargan.

Madaminbekning 1920-yil 7-mart kuni Skobelev shahrida o'tkazilgan 2-Turkiston o'qchi diviziyasi shtabi harbiylarining yarashish bitimini imzolash tantanasida tushgan surati arxiv fondida saqlanib qolgan. Alisher Ibodinov ushbu suratga tayangan holda Madaminbek obrazini quyidagicha tasvirlagan: "...Inglizcha "hakim" rangidagi french kiyib, yelkaga tortib bog'langan charm tasmaga zarhal qinlik qilich osib olgan, boshiga Marg'ilon do'ppisi kiygan Madaminbek allaqanday o'ychan qiyofada o'tiribdi. Uning aqlli ko'zlari tubida bilinar-bilinmas mung ham zohir. Ammo o'zini tutishi mag'rur, dadil. Bamisoli raqibi ustiga sakrashga chog'langan sher holati barq uradi bu qiyofada. Keng peshona, yaxshilab tarashlangan soqol-mo'ylovi esa suratdagi shaxsning ziyolinamo kishi bo'lganligidan dalolat beradi" [4.245.2024].

Bu portret botir jangchi, sarkarda, vatanparvar shaxs, Vatan uchun jonini fido qilgan buyuk o'g'lon haqida aniq tasavvur uyg'otadi. Madaminbekning boshidagi do'ppi esa o'zbek milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan detal sifatida namoyon bo'ladi. Madaminbek Qur'onni yod bilgan chin musulmon inson bo'lgan. Sarkardalikdan bo'sh vaqtlarida mutolaa bilan shug'ullanib, besh vaqt namozni ado etgan. Uning shoirta'b inson ekanligi ham yozuvchi tomonidan tarixiy faktlar asosida tasvirlab berilgan.

"Qo'rboshi Madaminbek" hujjatli qissasida tasvirlangan Madaminbek xakteri uning ziyoli inson ekanligidan dalolat beradi. U Marg'ilon hududida joylashgan xususiy maktablar holidan xabardor bo'lib turgan. O'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi sarkardani doimo tashvishlantirib kelgan. U maktab o'qituvchilarini rag'batlantirib turgan. Shuningdek, jang paytlarida qo'l ostidagi askarlarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan bir qatorda, o'qish uchun kitoblar bilan ham ta'minlab turgan.

Yozuvchi hujjatli qissada Madaminbek obrazi bilan bir qatorda Saodat aya va Ahmadbek obrazlarining ham xarakterini ochib bergan. Madaminbekning o'limidan so'ng Saodatning Marg'ilon shahrida yashashi biroz qiyinlashadi. "Bosmachi"ning oilasi degan ta'na-dashnomlar Saodatning uzoq qishloqlarga ketishiga sabab bo'ladi. Yillar o'tib, haqiqat qaror topadi. Saodatxon aya "bosmachi"ning oilasi emas, balki Vatan va uning ozodligi uchun jonini fido qilgan haqiqiy musulmon insonning oilasi ekanligi barchaga ayon bo'ladi.

Xulosa. Alisher Ibodinov tarixiy obrazlarni yaratar ekan, ularni faqat vatanparvarlik va sarkardalik xususiyatlari bilan cheklab qolmay, ilmparvarlik, ziyolilik va ma'rifatparvarlik kabi jihatlarini ham to'laqonli ochib bera olgan. "Quyosh ham olov" hikoyasida tasvirlangan Alp Tegin obrazi ham ozodlik kurashchisi sifatida o'zbek adabiyoti zarvaraqlaridan o'rin olgan. "Alisher adabiyotga ozodlik mavzusi yoritilgan "Quyosh ham olov" nomli ajoyib hikoyasi bilan kirib kelgan edi. Ozodlik yo'lida qurbon bo'lgan yoki qoralangan insonlar haqida haqiqatni xalqqa qaytarish ham istiqlool uchun kurash ekanligini unutmaylik" [5.241.2024].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramov Sh. X. Istiqlool davri o'zbek qissalarida milliy ozodlik kurashchilari obrazi talqini: monografiya. – Qarshi, 2024. – B. 8.
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Kafolat Print Company, 2021. – B. 9.
3. Davronov X. Istiqlool kurashchilarini unutmaylik. – T.: Adabiyot, 2024. – B. 240.
4. Ibodinov A. Tanlangan asarlar to'plami. Qo'rboshi Madaminbek. – T.: Adabiyot, 2024. – B. 245.
5. Davronov X. Istiqlool kurashchilarini unutmaylik. – T.: Adabiyot, 2024. – B. 241.